



THE PURSUIT OF PROSPERITY AND ITS PHILOSOPHICAL UNDERSTANDING

Rajabboy Hasanov

PhD Student

Bukhara State Pedagogical Institute

Uzbekistan, Bukhara

ABOUT ARTICLE

Key words: prosperity, morality, spirituality, justice, society, education, social protection, globalization.

Received: 10.05.25

Accepted: 12.05.25

Published: 14.05.25

Abstract: This article is devoted to the study of the theoretical and practical aspects of the idea of a prosperous life. It explores the historical development of the concept of “prosperity” and its philosophical interpretation across various historical periods and cultures. In particular, it is shown that in ancient civilizations such as Egypt, India, and China, prosperity was associated more with natural conditions and economic stability than with moral purity and religious belief. At the same time, it is substantiated that during the Middle Ages, prosperity was closely linked to moral purity and religious convictions. Moreover, the article provides a comprehensive and in-depth analysis of the components of a prosperous life and the factors influencing its formation.

FAROVONLIKKA INTILISH VA UNING FALSAFIY TADQIQI

Rajabboy Hasanov

mustaqil izlanuvchi (PhD)

Buxoro davlat pedagogika instituti

O'zbekiston, Buxoro

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: farovonlik, axloq, ma'naviyat, adolat, jamiyat, ta'lim, ijtimoiy himoya, globallashuv.

Annotatsiya: Ushbu maqola farovon hayot g'oyasining nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishga qaratilib, unda farovonlik tushunchasining tarixiy taraqqiyoti va turli davr hamda madaniyatlardagi falsafiy talqini tadqiq etilgan. Xususan, Misr, Hindiston va Xitoy kabi qadimiy sivilizatsiyalarda farovonlik axloqiy poklik va diniy e'tiqoddan

ko'ra, tabiiy sharoitlar va iqtisodiy barqarorlik bilan bog'liqligi yoritilgan bo'lsa, o'rta asrlarda u axloqiy poklik va diniy e'tiqod bilan chambarchas aloqador ekanligi asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada farovon hayotning tarkibiy qismlari va uning shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar har tomonlama va chuqur tahlil etilgan.

СТРЕМЛЕНИЕ К ПРОЦВЕТАНИЮ И ЕГО ФИЛОСОФСКОЕ ОСМЫСЛЕНИЕ

Раджаббой Хасанов

Докторант (PhD)

Бухарского государственного педагогического институт

Узбекистан, Бухара

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: процветание, нравственность, духовность, справедливость, общество, образование, социальная защита, глобализация.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению теоретических и практических аспектов идеи процветающей жизни. В ней исследуется историческое развитие понятия «процветание» и его философское толкование в различные исторические эпохи и культурах. В частности, показано, что в таких древних цивилизациях, как Египет, Индия и Китай, процветание было связано скорее с природными условиями и экономической стабильностью, чем с нравственной чистотой и религиозной верой. В то же время обосновано, что в Средние века оно находилось в тесной связи с моральной чистотой и религиозными убеждениями. Кроме того, в статье всесторонне и глубоко проанализированы составные элементы процветающей жизни и факторы, влияющие на её формирование.

KIRISH

Farovon hayot insoniyatning azaliy va eng ezgu orzularidan biri bo'lib kelgan. Ilk tarixiy davrlardan u nafaqat tirik qolish, balki yaxshi va mazmunli yashash, tinch-osuda hayot kechirish, baxt va saodat bilan yo'g'rilgan turmush qurishga oshiqib kelgan. Sirasini aytganda, insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanishi ham aynan farovon hayot sari intilishlar mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Qishloq xo'jaligining paydo bo'lishi, shaharlar qurilishi, davlat va huquq tizimlarining shakllanishi, ta'lim va ilm-fanning taraqqiy etishi – bularning barchasi insonning farovon hayot sari intilishlari ifodasidir. Shu nuqtai nazardan fikrlaganda, insoniyat tarixi ana shu ezgu orzuni ro'yobga chiqarishga qaratilgan sa'y-harakatlar tarixidan o'zga narsa emas.

Izohli lugʻatlarda “farovonlik” soʻzi goho toʻkin-sochinlik, moʻl-koʻlchilik, serfayz holat [1], goho tinch, osuda, rivojlangan, barkamol hayotni ifodalovchi tushuncha [2] sifatida taʼriflanadi. Biroq bu taʼrif “farovon hayot” tushunchasining asosiy mazmunini ifodalashda qoʻl keladi, xolos. Tarixiy taraqqiyot davomida farovon hayot toʻgʻrisidagi tasavvurlar muttasil takomil topa borgan. Qadimgi jamiyatlarda kishilar turmushi sifati koʻp jihatdan tabiiy shart-sharoitlardan kelib chiqqani bois farovon hayotning asosiy belgilari obod yerlar, serhosil dalalar, suv manbalari va xavfsiz joylar bilan bogʻlanardi. Masalan, Misrda Nil daryosining har yili toʻlib-toshishi hosildorlikni taʼminlab, xalqning farovon yashashiga zamin yaratardi [3]. Shumer, Xitoy va Hind sivilizatsiyalarida ham tabiiy shart-sharoitlar farovonlikning asosiy manbai biri sanalardi. Oʻrta asrlarda farovon hayot koʻproq dunyoviy farovonlik – toʻkin-sochinlik bilan emas, balki axloqiy poklik, oxiratda najot topish umidi bilan bogʻlandi. Xususan, farovonlikka yetaklovchi asosiy vositalar islom dini yoyilgan hududlarda maʼnaviy komillik, odob-axloq, ibodat va ilm [4], xristian dini yoyilgan diyordlarda esa kamtarlik va taqvodorlik bilan [5] bogʻlandi.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolani yozishda tizimli tahlil va tarixiy yondashuv metodlaridan foydalanildi. Tizimli tahlil usuli yordamida farovon hayot tushunchasi turli davrlarda qanday shakllanganini va rivojlanganini oʻrganish imkoniyati yaratildi. Bu usul asosida farovonlikning moddiy va maʼnaviy jihatlari, ularning oʻzaro bogʻliqligi tahlil qilindi.

Tarixiy yondashuv orqali esa turli davrlarda farovon hayot tushunchasi qanday oʻzgarib borgan, qadimgi jamiyatlardan tortib zamonaviy davrgacha boʻlgan evolyutsiyasi koʻrsatib berildi. Bu yondashuv yordamida qadimgi Misr, Hindiston, Xitoy, Eron va Turon sivilizatsiyalarida farovonlik haqidagi tasavvurlar hamda ularning asosiy belgilari oʻrganildi. Mazkur yondashuv farovon hayot haqida turli falsafiy va sotsiologik nazariyalar rivojini ham tahlil qilishga imkon berdi.

Shuningdek, ilmiy-adabiy manbalarni oʻrganish va tahlil qilish orqali farovon hayotga oid turli nazariyalar va yondashuvlar qiyosiy jihatdan koʻrib chiqildi. Qadimgi falsafiy taʼlimotlardan tortib, zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy nazariyalargacha boʻlgan gʻoyalar qiyoslanib, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlangan. Natijada farovon hayotning moddiy va maʼnaviy omillari, ularning shaxsiy va ijtimoiy jihatlari keng tahlil qilindi.

Ushbu metodologiya maqolaning nazariy asoslarini mustahkamlab, mavzuni keng va chuqur tahlil qilish imkonini berdi. Natijada farovon hayot tushunchasining turli tarixiy va madaniy jihatlari ilmiy asosda ochib berildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

XVIII–XIX asrlardagi industrial taraqqiyot “farovon hayot” tushunchasining moddiy asoslarini takomil toptirdi. Farovon hayot endilikda uy-joy, moliyaviy salohiyat, mahsulot va xizmatlardan foydalanish imkoniyati bilan oʻlchana boshlandi [6]. XXI asrdagi globallashtirish jarayonlari, axborot texnologiyalari taraqqiyoti, ijtimoiy ong yuksalishi farovon hayot haqidagi tasavvurlarni yanada yuksaltirdi. Hozirgi kunda kishilar nafaqat insonning daromadlari darajasi, balki uning ruhiy sogʻlomligi, taʼlim olish va oʻz salomatligini saqlash imkoniyatlari, turmushining ekologik shart-sharoitlari, maʼnaviy kamolotga erishish imkoniyatlari va shu kabilarni farovonlik belgisi sifatida tavsiflamodalar.

Farovon hayot toʻgʻrisidagi tasavvurlar evolyusiyasi turli falsafiy va sosiologik nazariyalarda ham iz qoldirdi, albatta. Tasavvurlar takomil topgani sayin koʻplab nazariyalar va taʼlimotlardagi farovon hayot taʼrifi va tavsifi ham mazmunan toʻlishib bordi. Farovon hayot va uning belgilari toʻgʻrisidagi ilk fikrlarni qadimgi Hindiston va Xitoy, Eron va Turondagi taʼlimotlardayoq uchratish mumkin. Xususan, Hind falsafasida farovon hayot deganda insonning dxarmaga (axloqiy majburiyatlar va hayotiy vazifalarga) amal qilgan holda hayot kechirishi shakli tushuniladi. Dxarmaga amal qila olgan kishilar pirovardida mokshaga (ruhiy ozodlik) erishadi, deb qaraladi [7]. Qadimgi Xitoyda qaror topgan konfusiychilik taʼlimotida farovon hayot jen (insoniylik), li (marosim) va i (adolat) yigʻindisi sifatida eʼtirof etiladi [8]. Eron va Turonda keng tarqalgan zardushtiylikda esa ezgulik, rostgoʻylik va poklik bilan yoʻgʻrilgan turmush farovon hayot sifatida tan olinadi [9].

Falsafiy va sotsiologik nazariyalar “farovon hayot” tushunchasini batafsil belgilash, uning tarkibiy qismlarini ifodalash va uni shakllantiruvchi omillarni umumlashtirish imkonini beradi. Shunday qilib, farovon hayot – bu insonning moddiy, maʼnaviy va ijtimoiy ehtiyojlari qondiriladigan va barqaror shaxsiy rivojlanish taʼminlanadigan turmush tarzi va sifatini ifodalovchi tushunchadir.

Turfa nazariyalarda ilgari surilgan gʻoyalar koʻrsatadiki, farovon hayotning moddiy va maʼnaviy-ruhiy jihatlari mavjud. Farovon hayotning moddiy jihati deganda quyidagilar nazarda tutiladi:

- insonning mol-mulki;
- insonning ish bilan bandligi;
- insonning moliyaviy resurslari;
- insonning ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari.

Farovon hayotning maʼnaviy-ruhiy jihati deganda quyidagilar nazarda tutiladi:

- hayotiy maqsadlarning mavjudligi;

- insonning o'z qadr-qimmatini his etishi;
- ruhiy xotirjamlik;
- e'tiqodning mavjudligi.

Farovon hayotning moddiy jihati ham, ma'naviy-ruhiy jihati ham muhim ahamiyatga ega. Ularning birinchisi, insonning asosiy moddiy ehtiyojlarining to'laqonli qondirilishiga xizmat qilsa, ikkinchisi uning ma'naviy dunyosini boyitadi va hayotdan rozilik hissini kuchaytiradi. Biroq shuni ham ta'kidlab o'tmoq darkorki, yuqorida tilga olingan moddiy va ma'naviy ne'matlardan biriga yoki bir nechasiga egalik farovon hayotning yuzaga kelganini anglatmaydi. Farovon hayot mazkur ne'matlarning barchasiga ega bo'lganlik holatidir. Moddiy va ma'naviy-ruhiy jihatlar uyg'un holda rivojlanmasa, farovon hayot to'liq ta'minlanmaydi. Farovon hayotning moddiy va ma'naviy-ruhiy jihatlariga egalik pirovardida baxt hissining vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

Tabiiyki, farovon hayot o'z-o'zidan yuzaga kelib qoladigan ne'mat emas. U qator omillar ta'sirida qaror topadi. Bu omillarning asosiylari quyidagilardan iborat:

1. Maqbul ekologik vaziyat. Ekologik vaziyat deganda quyidagilar nazarda tutiladi:

- a) hududdagi tuproq ahvoli, qishloq xo'jaligida ishlatiladigan yerlar holati;
- b) hududdagi suv havzalari ahvoli va ulardan foydalanish amaliyoti;
- d) hududdagi iqlimning o'ziga xos xususiyatlari;
- e) hududdagi o'simlik turlari;
- f) hududdagi hayvonot olami;
- g) hududdagi tabiiy boyliklar va ulardan foydalanish ahvoli;
- h) hududdagi tabiiy shart-sharoitlarning inson turmushi uchun maqbulligi darajasi" [10].

Ushbu komponentlarning maqbulligi farovon turmushning shakllanishi uchun obyektiv shart-sharoit vazifasini o'taydi;

2. Iqtisodiy barqarorlik. Mamlakatda uzoq muddat davomida iqtisodiy o'sishning saqlanib turishi, mavjud tabiiy va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanilishi inflyatsiya, ishsizlik, mehnat bozoridagi beqarorlik kabi salbiy holatlarning oldini oladi. Natijada mamlakat fuqarolari doimiy ish o'rniga, barqaror daromadga va ijtimoiy xizmatlardan yetarlicha foydalanish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Bu esa ularning moddiy ehtiyojlarini qondirishda, kelajak turmush bilan bog'liq uzoq muddatli rejalar tuzishda, xotirjam umguzaronlik qilishda qo'l keladi. Binobarin, barqaror iqtisodiyot farovon hayot uchun mustahkam va ishonchli poydevor hisoblanadi;

3. Oqilona ijtimoiy siyosat. Davlat tomonidan aholi turmushi farovonligini ta'minlash, kambag'allikni kamaytirish, fuqarolar uchun teng imkoniyatlarni yaratish, kam ta'minlangan

tabaqalarni ijtimoiy jihatdan himoya qilish maqsadida amalga oshirilgan uzluksiz chora-tadbirlar tizimigina oqilona ijtimoiy siyosat sifatida tavsiflash mumkin. Oqilona ijtimoiy siyosat mehnat bozori, ta'lim, sog'liqni saqlash, pensiya tizimi, ijtimoiy ta'minot va boshqa sohalarni takomil toptirish masalalariga keng qamrovli yondashuvni talab qiladi. Bunday siyosat, nafaqat aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi, balki unga sog'liqni saqlash, ta'lim, uy-joy va ish bilan ta'minlash kabi sohalarda kafolatlangan xizmatlardan foydalanish imkonini beradi;

4. Zamonaviy ta'lim tizimi. Har qanday ta'lim tizimini ham zamonaviy xarakterga ega, deb bo'lmaydi, albatta. Zamonaning tez o'zgaruvchan shart-sharoitlarga moslashuvchan, innovasion texnologiyalarga asoslangan, ta'lim oluvchilarning shaxsiy qobiliyati va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan tizimigina shunday tavsiflash mumkin. Zamonaviy ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, masofaviy ta'lim shakllarini joriy etish, o'quv dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish, tanqidiy va mustaqil fikrlashni rag'batlantirish kabi muhim talablar mavjudligi ham sir emas. Bunday tizim yordamida kishilar yuqori malakali mutaxassis sifatida kamol topa oladilar, bu esa ularga munosib ishga joylashish, barqaror daromad manbaiga ega bo'lish, shu tariqa o'z turmushi sifatini yaxshilash imkonini beradi;

5. Zamonaviy sog'liqni saqlash tizimi. Odatda zamonaviy sog'liqni saqlash tizimi deganda innovasion tibbiyot texnologiyalari va yuqori malakali mutaxassislarga ega bo'lgan, sifatli tibbiy xizmatlar ko'rsatishga qodir tizim tushuniladi. Bugung kunda uning tarkibida raqamli tibbiyot, telemeditsina, genom tadqiqotlari, sun'iy intellekt orqali tashhis qo'yish va profilaktika chora-tadbirlarini kuchaytirish kabi zamonaviy yondashuvlar muhim o'rin tutadi. Tibbiy xizmatlarning yuqori darajada tashkil etilishi aholi salomatligini yaxshilaydi, o'rtacha umr ko'rish davrini uzaytiradi va kasalliklarning oldini olish imkonini beradi. Sog'lom jamiyatda esa mehnat unumdorligi muttasil osha boradi, pirovardida esa kishilarning turmushi farovonlashadi;

6. Ijtimoiy adolat. Jamiyatda barcha fuqarolarning huquq va manfaatlari teng himoya qilinganligi hamda kafolatlanganligi, mavjud resurslar va imkoniyatlarning oqilona taqsimlanganligi ham muhim ahamiyatga ega. Chunki aynan ana shunday tamoyillar jamiyatda barqarorlik va hamjihatlikni ta'minlaydi. Adolatli jamiyatda har bir inson ijtimoiy imkoniyatlardan to'laqonli foydalana oladi hamda o'z turmushini farovonlashtirish imkoniga ega bo'ladi. Shuningdek, ijtimoiy adolatning ta'minlanishi ijtimoiy to'qnashuvlar, diskriminatsiya va noroziliklarni kamaytiradi, bu esa ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi;

7. Sog'lom ma'naviy muhit. Sog'lom ma'naviy muhit – yuksak ma'naviy qadriyatlarga asoslangan tarzda hayot kechirish imkonini beradigan ijtimoiy-ruhiy muhit demakdir. Unda

o'zaro hurmat, bag'rikenglik, adolat, insonparvarlik, mehr-oqibat va halollik kabi umuminsoniy qadriyatlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bunday muhitda fuqarolar o'zaro birdamlik va hamjihatlikda yashaydilar, jamiyatda o'zaro ishonch va o'zaro yordam ruhiyati ustuvor bo'ladi. Sog'lom ma'naviy muhit farovon hayotning shakllanishida muhim o'rin tutadi. Birinchidan, sog'lom ma'naviy muhit inson ma'naviy kamolotiga ijobiy ta'sir qilib, unda mas'uliyatlilik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni mustahkamlaydi. Bu esa fuqarolarni jamiyatning mas'uliyatli a'zosiga aylantiradi. Ikkinchidan, sog'lom ma'naviy muhit odamlarning hayotdan rizoligi darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

8. Shaxsiy intilish. Farovon hayotning yuzaga kelishida shaxsiy intilishning ham o'ziga xos o'rni bor. Boshqacha aytganda, avvalo insonning o'zi farovon turmush kechirishni astoydil istashi, uning sari intilishi, bu yo'lda barcha imkoniyatlarini ishga solishi lozim. O'zi hohlamagan, o'zi intilmagan insonni farovon hayot sari yetaklab kelish bag'oyat mushkul.

XULOSA

Xulosa qiladigan bo'lsak, farovon hayot insoniyatning barcha davrlardagi eng ezgu orzusi, ijtimoiy taraqqiyotning pirovard maqsadidir. Ko'plab falsafiy va sosiologik nazariyalar hamda ta'limotlar tahlili ko'rsatadiki, farovon hayot deganda insonning moddiy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlari qondirilgan, barqaror shaxsiy rivojlanishi ta'minlangan holdagi turmush tarzi va sifati nazarda tutiladi. Uning moddiy va ma'naviy-ruhiy jihatlari maqbul ekologik vaziyat, iqtisodiy barqarorlik, oqilona ijtimoiy siyosat, zamonaviy ta'lim va sog'liqni saqlash tizimi, ijtimoiy adolat tamoyillari ustuvorligi, sog'lom ma'naviy muhit hamda shaxsiy intilishlar kabi omillar sharofati bilan qaror topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Farovonlik. // O'zbek tilining izohli lug'ati. A. Madvaliyev tahriri ostida. Jild 4. - T.: O'zb. milliy ensikl., 2008. - B.331.
2. Благосостояние. // Большая Российская энциклопедия. // bigenc.ru.
3. Саинов М.П., Саинова Н.П. Об истории древнего Египта и его гидротехнике. // Вестник МГСУ, 2008, №3.- 14-21-с.
4. Yusupov M. Yaxshi xulq – baxt-u farovonlik kaliti. // hidoyat.uz, 2019, 28 fevral.
5. Ордина О.Н. Смирение как основная христианская добродетель. // Национальная ассоциация ученых, 2015, №9-4. - 46-48-с.
6. Смагин И.И. Составляющие и критерии оценки уровня благосостояния: методологический аспект. // Социально-экономические явления и процессы, 2013, №7. - 142-146-с.

7. Бхагавад Гита. // Пер. с санскрита Д.Бурбы. - М.: Рипол классик, 2009; Радхакамал Мукерджи. The Social Philosophy of the Bhagavad Gita. - London: Routledge, 1955.
8. Конфуций. Лунь Юй (Суждения и беседы). // Пер. и комм. А. И. Кобзева. - М.: Восточная литература, 2001.
9. Avesto. // Asqar Mahkam tarjimasi. - T.: Sharq, 2001.
10. Omonov B.N. Ekologik globalashuv va uning O'zbekistondagi ekologik muhitga ta'siri. - T.: Voris-nashriyot, 2021. - B.37.
11. Sobirovich, T. B. (2021). The implementation of human indicator reforms in Uzbekistan. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 197-202.
12. Sobirovich, T. B. (2020). Evolution of ideas and views on the development of democratic society and spiritual renewals. Scientific Bulletin of Namangan State University, 10, 243-250.